



Tadqiqot UZ

ЎЗБЕКИСТОН  
ОЛИМЛАРИ ВА  
ЁШЛАРИНИНГ  
ИННОВАЦИОН  
ИЛМИЙ-АМАЛИЙ  
ТАДҚИҚОТЛАРИ  
МАВЗУСИДАГИ КОНФЕРЕНЦИЯ  
МАТЕРИАЛЛАРИ

2021

- » Хуқуқий тадқиқотлар
- » Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар
- » Тарих саҳифаларидағи изланишлар
- » Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни
- » Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни
- » Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар
- » Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар
- » Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши
- » Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши
- » Техника ва технология соҳасидаги инновациялар
- » Физика-математика фанлари ютуқлари
- » Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар
- » Кимё фанлари ютуқлари
- » Биология ва экология соҳасидаги инновациялар
- » Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари
- » Геология-минерология соҳасидаги инновациялар



31 AVGUST  
№31

CONFERENCES.UZ

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"  
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 31-КҮП ТАРМОҚЛИ  
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ  
МАТЕРИАЛЛАРИ  
13 - ҚИСМ**

---

**МАТЕРИАЛЫ РЕСПУБЛИКАНСКОЙ  
31-МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ДИСТАНЦИОННОЙ  
ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИИ НА ТЕМУ "НАУЧНО-  
ПРАКТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ"  
ЧАСТЬ-13**

---

**MATERIALS OF THE REPUBLICAN  
31-MULTIDISCIPLINARY ONLINE DISTANCE  
CONFERENCE ON "SCIENTIFIC AND PRACTICAL  
RESEARCH IN UZBEKISTAN"  
PART-13**

**ТОШКЕНТ-2021**



УУК 001 (062)  
КБК 72я43

## "Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" [Тошкент; 2021]

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" мавзусидаги республика 31-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 август 2021 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2021. - 10 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн конференция 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишиланган.

Ушбу Республика илмий конференцияси таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илфор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳлил қилинган конференцияси.

**Масъул мухаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

### **1.Хуқуқий тадқиқотлар йўналиши**

Профессор в.б.,ю.ф.н. Юсувалиева Раҳима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

### **2.Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар**

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна(Фаргона давлат университети)

### **3.Тарих саҳифаларидағи изланишлар**

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

### **4.Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни**

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган мухандислик-қурилиш институти)

### **5.Давлат бошқаруви**

Доцент Шакирова Шохида Юсуповна (Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети)

### **6.Журналистика**

Тошбоева Барнохон Одилжоновна(Андижон давлат университети)

### **7.Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар**

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш худудий маркази)



**8.Адабиёт**

PhD Абдумажидова Дилдора Раҳматуллаевна (Тошкент Молия институти)

**9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни**

Phd Воҳидова Меҳри Ҳасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

**10.Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар**

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят ҳалқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

**11.Жисмоний тарбия ва спорт**

Усмонова Дилфузахон Иброҳимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

**12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш**

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

**13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши**

Бобоҳонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

**14.Тасвирий санъат ва дизайн**

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**15.Мусиқа ва ҳаёт**

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар**

Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманганд мухандислик-курилиш институти)

**17.Физика-математика фанлари ютуқлари**

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманганд мухандислик-технология институти)

**18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар**

Т.Ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

**19.Фармацевтика**

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

**20.Ветеринария**

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

**21.Кимё фанлари ютуқлари**

Рахмонова Доно Қаҳхоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



**22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар**

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

**23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари**

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

**24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар**

Phd доцент Қаҳҳоров Ўқтам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

**25.География**

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

*Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулdir.*

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

**АРХИТЕКТУРА ВА ДИЗАЙН ЙЎНАЛИШИ  
РИВОЖЛАНТИРИШ**

<b>1. Izzatova Aziza Ulug’bekovna, Izzatova Ra’no Ulug’bekovna</b> SHAYBONIYLAR SULOLASINING ME’MORIY YODGORLIKHLARI, ULARNING ARXITEKTURASI VA AHAMIYATI.....	7
--	---



## АРХИТЕКТУРА ВА ДИЗАЙН ЙЎНАЛИШИ РИВОЖЛАНТИРИШ

SHAYBONIYLAR SULOLASINING ME'MORIY YODGORLIKHLARI, ULARNING  
ARXITEKTURASI VA AHAMIYATI

Izzatova Aziza Ulug'bekovna

Mustaqil ilmiy-tadqiqotchi

Telifon:+998(93)5141904

izzatovaaziza8@gmail.com

Izzatova Ra'no Ulug'bekovna

TVCHDPI Gumanitar fanlar fakulteti

3-bosqich talabasi

Telifon:+998(93)5546907

ranoizzatova377@gmail.com

**Annotatsiya:** Maqolada XVI asrda Movarounnahrda hukmronlik qilgan Shayboniylar sulolasi davrida qurilgan me'moriy inshootlar, ularning arxitekturasi va bugungi kundagi ahamiyati haqida so'z boradi. Shayboniylar davrida qurilgan inshootlar bugungi kunda katta tarixiy ahamiyatga ega ekanini bilishingiz mumkin.

**Kalit so'zlar:** Shayboniylar, arxetektura, madrasa, masjid, xonaqoh, naqshlar.

Bilamizki, qadimdan O'rta Osiyoda, ya'ni bizning hududimizda me'morchilik qurilish ishlari yuksak darajada rivojlanib kelgan. Buni biz XVI asr davomida Movarounnahrda hukmronlik qilgan Shayboniylar sulolasi misolida ham ko'rishimiz mumkin. O'zbek davlatchiligimiz taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan Shayboniy hukmdorlar davrida arxitektura sohasida bir qancha inshootlar bunyod etilgan.

XV-XVI asrlarda Temuriylar hukmronligining inqirozga yuz tutishiga va Movarounnahrda Shayboniylar sulolasi hukmronligining o'rnatilishiga olib kelgan siyosiy voqealar o'sha davrdagi mahalliy arxitekturaning rivojlanishiga va uning "Navoiy davri"da qaror topgan an'analariga ta'sir ko'rsatmadи. Samarqandda XVI asrning dastlabki o'ttiz yili mobaynida, ya'ni poytaxt Buxoroga ko'chirilgunga qadar ko'pgina qurilish ishlari amalga oshirilgan bo'lib, shahar ichida ko'pgina hashamatli binolar qad ko'tardi. Shahar atrofining sharqi qismida yangi mahalla (Nav) paydo bo'ldi. Bu yerda Samarqand zodagonlarining bog'lari joylashgan bo'lib, ular orasida Dili Afro'z bog'i o'zining go'zalligi bilan ayniqsa shuhrat qozongan edi. Shu davrda barpo etilgan ko'pgina qurilishlardan hozirgacha yirik sug'orish inshoati-Zarafshondagi suv taqsimlagichgina (1502-yil) saqlanib qolgan. Bu suv ayirgich Zarafshon suvini asosiy o'zan Qoradaryo va Oqdaryoga taqsimlab bergen. Suv taqsimlagichning mustahkamligi, daryolarning asrlar davomida kuchli suv toshqinlariga bardosh bera olishi-o'zbek ustalarining yuksak injenerlik san'atidan dalolat beradi.[1].

Me'morchilik inshootlari nafaqat hukmron sulola vakillari, balki xususiy mulkdorlar tomonidan ham bunyod etilgan. Mamlakatning Buxoro, Samarqand, Toshkent, Qarshi, Karmana, Turkiston, Marv, Balx, Hirot, Xiva kabi ko'plab shaharlarida turli me'morchilik inshootlari madrasa va masjidlar, xonaqohlар, timlar, minoralar, hammomlar, karvonsaroylar, sardoba, ko'priklar va shu kabi ko'plab qurilish ishlari olib borildi. Shaharlar devorlari ta'mirlandi. Misol uchun, Samarqanddagi Shayboniyxon qudirgan Xoniya, Abu Said va Qulbobo Ko'kaldosh nomlari bilan bog'liq madrasalar, Samarqand yaqinidagi suv ayirg'ich, Buxoroda shahar devorining ta'mirlanishi, Mir Arab, Abdullaxon, Modarixon madrasalari, Toshkentdagi Baroqxon va Ko'kaldosh madrasalari, Turkistonda Shayboniyxon masjidi, Karmanada Qosim Shayx masjidi, Balxda qal'a devorining ta'mirlanishi, Abdullaxon, Qulbobo Ko'kaldosh madrasalari, Hirotda Ko'kaldosh madrasasi kabilar shular jumlasidandir.[2].

Shayboniylar davrida arxitektura sohasida ko'plab qurilish ishlari olib borilganligini



ko‘rishimiz mumkin. Quyida shu me’moriy obidalarga qisqacha toxtalib o‘tamiz.

Oliyai Xoniya madrasasi. Registondan shimolroqda Shayboniyalar davrida qurila boshlangan. Muhammad Shayboniyxon 1510-yilda Marv yaqinida Eron safaviylari bilan bo‘lgan jangda halok bo‘lgach, uni boshi qirqilgan tanasi Samarqandga olib kelinadi va madrasa hovlisida kulrang marmardan ishlangan baland supaga dafn qilinadi. Binoning qurilishi o‘g‘li Temur Muhammad Sulton tomonidan davom ettiriladi. U 1514-yilda vafot etadi. Madrasanining qurilishi uning rafiqasi Mehr Sultonxonim tomonidan nihoyasiga yetkaziladi. Uning farmoniga ko‘ra, Oliyai Xoniya madrasasining shimoliy tomonida ushbu madrasaga o‘xshash hashamatli bo‘lgan Xoniya madrasasi quriladi. Bu ikki madrasa lojuvard va zarhal koshinlar bilan birlashtirilgan edi. Madarasadagi dahmada Samarqandlik Shayboniylarning avlod-ajdodlari dafn etilgan. XVIII asrda ikkala madrasa ham buziladi. XVIII asrning oxirlariga kelib Oliyai Xoniya madrasasi qisman qayta tiklandi. Lekin 1874-yilda shu yerdan ko‘cha o‘tkazilishi uchun bino buzib tashlanadi va dahma boshqa yerga ko‘chiriladi.[3].

Ko‘k gumbaz madrasasi. Taxminan XVI asr o‘rtalarida Registon maydonining janub tomonida barpo etilgan. Ushbu madrasa Ko‘chkinchixonning o‘g‘li Abu Saidxon tomonidan qurilgan. madrasa Samarqandlik Shayboniyalar sag‘anasining gumbaz shaklidagi zalini o‘z ichiga olgan. Madrasanining “Ko‘k gumbaz” deb nomlanishida madrasa sag‘anasining ko‘k gumbazi asosiy rol o‘ynaganligidan dalolat berib turibdi. Asosiy oyna devorlarining yer tagida qolib ketgan qoldiqlari “Childuxtaron” nomi bilan XX asr boshlariga qadar saqlangan. Ajoyib tarzda o‘yib ishlangan va qabr ustiga qo‘yilgan toshlarga yozilgan xatlar bu yerda Ko‘chkinchixon, uning 3 o‘g‘li, hamda 3 nabirasi dafn etilganidan dalolat beradi. Ular orasida ushbu madrasani qurdirgan Abu Saidxon ham bor. Uning qabr toshi Kulrang-qora toshdan o‘yib ishlangan va ajoyib o‘yma naqshlar solingan. Toshning materiali va unga ishlov berish usuli Hirotdagi Temuriylar qabri toshlariga yaqinligi tufayli qabr toshlarini tayyorlash uchun Hirotdagi o‘sha mohir ustalardan biri jalb etilgan deb taxmin qilinadi.[4].

Mir Arab madrasasi. Buxorodagi me’moriy yodgorlik, 1530-1536-yillarda Buxoro xoni Ubaydullaxon in’om etgan mablag‘ hisobiga Shayx Abdulla tomonidan qurilgan. Madrasanining umumiy tarhi 68,5x51,8 m, hovli 35,4x31,3 m, darsxona 8x8 m. Hovlisi to‘rtburchak shaklida bo‘lib, atrofini oldi ravoqli, ikki oshyonli 114 hujra o‘rab turadi. Tomonlar o‘rtasidagi 4 baland peshtoqli darsxona-ayvon hovli mahobatini oshiradi. Tuzilishi jihatidan naqshinkor janubiy peshtoqning dastlabki qiyofasi saqlanib qolgan, bu naqshlarning tarkibiy qismida yulduzsimon bezaklar uchraydi. Undagi bezaklarning saqlanib qolgan ayrim parchalaridan naqshlar g‘oyat nafis va nozik bo‘lganligini bilish mumkin. Rivoyatlarga ko‘ra, Madrasa asosi chuqur qilinib, tog‘ toshlari bilan mustahkamlangan, qor, yomg‘ir suvini qochirish uchun tazarlar ishlangan, ular orqali suvlar shahar qo‘rg‘onidan tashqariga chiqarilgan. Mir Arab madrasasida O‘rta Osiyo diniy maktablari qurilishiga xos an‘anaviy loyiha va mujassamot o‘z ifodasini topgan. Buxoroning 2500-yilligi munosabati bilan Madrasa peshtog‘i va gumbazlaridagi to‘kilib ketgan koshinkori naqshlar va yozuvlar qayta tiklandi; Hozirda Madrasada talabalar islam dinidan saboq oladilar.[5].

Buxorodagi Qo‘sh Madrasa. Bu madrasalar Qo‘sh madrasa guzarida joylashgan. Madrasalar bir-biriga qarama-qarshi qilib qurilgan. G‘arb tomonda joylashgan madrasa Abdullaxonning g‘arbiy madrasasi deyiladi, sharq tomonda joylashgan madrasa esa Abdullaxonning sharqiy madrasasi yoki onasiga atab qurdirgani uchun Modarixon madrasasi ham deyiladi (ko‘pincha Modarixon madrasasi deyiladi). G‘arbiy madrasani shayboniy hukmdorlarining mashhur vakili Abdullaxon ibn Iskandarxon ibn Jonibekxon ibn Abulxayrxon tomonidan barpo etilgan. Uning qurilishini Hofiz Tanish Buxoriy ajoyib tariflagan. Bu madrasa davrining eng oliy va eng boy oliy oquv dargohi edi. Uning moddiy taminoti unga ajratilgan vaqf mulki hisobidan ta’milangan. Madrasanining boy kutubxonasi ham bor edi. Kutubxonada tib, hikmat, mantiq, nahv, tafsir, hadis va limning boshqa sohalariga doir ko‘plab vaqf qilingan kitoblar saqlanar edi. Ular orasida Mahmud az-Zamaxshariy, Imom G‘azzoliy kabi bir qancha buyuk mutafakkirlarning asarlari saqlanar edi.[6]

Shayboniyalar davri, Grajdan arxitekturasi yodgorliklaridan ko‘prik va sardobalardan tashqari Buxoroning bozor ko‘chalari chorrahalarida qurilgan naqshli beshta bino, ayniqsa, katta diqqatga sazovordir. Bu binolar: Toqi Sarofon, Toqi Telpakfurushon, Toqi Zarafshon va bizgacha yetib kelmagan, Toqi Tirgdan hamda Toqi Urufurushondir. Bu hashamatli binolar tipi Abdullaxon nomli tepasi yopiq katta bozor bilan birga poytaxtning markaziy qismini hamisha gavjum



bozorning tashqi arxitektura Ko‘rinishini tashkil qilar edi. Grajdan arxitekturasi asarlaridan juda yaxshi va hozirgacha ishlab turgan. Sarafon hammomini ko‘rsatish mumkin. Buxoroning arxitektura binolarini ichki va tashqi tomonining bezagida turli tuman usullar qo‘llanilar, ammo tayyor suratga qarab maxsus qurilgan turli rangdagi koshinlardan iborat bo‘lgan sirli o‘ymakor mozoika XVI asrda juda qimmatga tushuvchi va ko‘p mehnat talab qiluvchi usul sifatida ancha kam qo‘llanilardi. Naqshning relvori, qismlariga tillo suvi berilar, fon ko‘k yoki yashil ranglarga bo‘yalar, mayda gullar va naqshlar ham shunga qarab bo‘yalardi. Bularning barchasi go‘yo mayda gulli armomentga ega bo‘lgan yashil yoki ko‘k maydonga tilla naqshlar yoyilib tashlanganday tasavvur hosil qilardi. Toshga naqsh ishlash Buxoro muzeyida saqlanuvchi kulrang marmardan ishlangan ajoyib qabr toshlaridan ma’lum. Bu toshlar boshdan oyoq juda yaxshi ishlangan va sinchiklab o‘ylgan gullar armament bilan hamda kalligrafik qoidalarga qat’iy bo‘ysunib o‘ylgan yozuvlar bilan qoplangan.[7].

Shayboniyalar davrida Temuriylar davridagidek qurilish ishlari amalga oshirilmagan bo‘lsada, XVI asr davomida me’morchilik sohasi bir joyda to’xtab qolmadi. Bu davrda yirik madaniy markaz hisoblangan Buxoro va Samarqand shaharlaridagina emas, balki boshqa shaharlarda ham katta qurilish ishlari amalga oshirilgan. Bu davrda o‘zbek arxitektura sohasining mahoratli ustalari tomonidan bunyod etilgan memoriy yodgorliklar bizning tariximizni yanada boyitib kelmoqda.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, O‘zbekistonligi har bir shaharning go‘zal qiyofada ekanligiga, o’sha davrda bunyod etilgan memoriy obidalarning o‘zgacha ahamiyati bor. O‘z davri uchun yuksak did bilan qurilgan bu madrasalarning aksariyati mustaqillikdan keyin qayta tiklandi va ya’na avvalgidek ulug‘vorlikni o‘zida mujjasam etdi. Shuni takidlashimiz kerak, Shayboniyalar davri arxitektura yodgorliklari O‘zbekiston me’morichlik san’atining yuksak na’munalaridan biridir.

#### **Foydalanimgan adabiyotlar ro’yxati:**

1. Самарканд тарихи. I-том. Т., Фан. 1971.бет-298.
2. Б.Ж.Эшов, А.А.Одилов “ЎЗБЕКИСТОН ТАРИХИ” I – жилд (Энг қадимги даврдан XIX аср ўрталаригача), Тошкент-2013. бет-387.
3. O‘zbekistonning tarixiy obidalari (Samarqand, Buxoro, Xorazm, va Toshkent viloyatlari misolida) Samarqand-2011. bet-9.
4. Самарканд тарихи. I-том. Т., Фан. 1971.бет-299.
5. O‘zbekiston Milliy esklopediyasi. Т.,o‘zMU nashriyoti, 2000-2005.
6. X. Axmadov. Bitiruv malakaviy ishi. Madrasalar va ularning jamiyat hayotida tutgan o‘rni. Buxoro-2019. 20-21 betlar
7. N. Bo’riboyeva. Kurs ishi “Shayboniyalar davrida Movarounnaxrda madaniy hayot”. 46-47 betlar

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"  
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 31-КҮП ТАРМОҚЛИ  
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ  
МАТЕРИАЛЛАРИ**

**(13-қисм)**

**Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович  
Мусаҳҳих: Файзиев Фаррух Фармонович  
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев**

Эълон қилиш муддати: 31.08.2021

**Контакт редакций научных журналов.** tadqiqot.uz  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz**  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000